



INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA PEDAGOGIK TAMOYILLARI

Buzrukova Xurshida Rustamxanovna

Xurshidabonu25@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mazmuni, maqsadi, asosiy tushunchalari, tamoyillari va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan. Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari hamda o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'рни ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Aql, idrok, tafakkur, intellekt, mustaqil fikrlovchi, iqtidorli, bilim, ta'lim, irodasi baquvvat, iymoni butun.

КОНЦЕПЦИЯ, СУЩНОСТЬ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Бузрукова Хуршида Рустамхановна

Khurshidabonu25@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются содержание, цели, основные понятия, принципы и механизмы реализации инклюзивного образования. С научной точки зрения рассматриваются педагогические основы инклюзивного образования и его роль в развитии личностных способностей учащихся.

Ключевые слова: Разум, восприятие, мышление, интеллект, самостоятельность мышления, талантливый, знания, образование, сильная воля, цельная вера.





CONCEPT, ESSENCE AND PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF INCLUSIVE EDUCATION

Buzrukova Khurshida Rustamkhanovna

Khurshidabonu25@gmail.com

Abstract: This article analyzes the content, purpose, basic concepts, principles and mechanisms of implementation of inclusive education. The pedagogical foundations of inclusive education and its role in the development of students' personal abilities are considered from a scientific point of view.

Keywords: Mind, perception, thinking, intellect, independent thinker, talented, knowledge, education, strong will, whole faith.

Bugungi globallashuv jarayonlarida ta'lim tizimi insonparvarlik va tenglik tamoyillariga tayangan holda takomillashib bormoqda. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim barcha bolalarning ta'lim jarayonida teng ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida alohida e'tiborni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham "Inklyuziv ta'lim to'g'risida" qarorlar, dasturlar va normativ hujjatlar qabul qilinib, ushbu yo'nalish bo'yicha amaliy ishlar kengaytirilmoqda.[1].

O'zbekistonda integratsiyalashgan (inklyuziv) ta'limni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatida imkoniyatlari cheklangan bolalarning barqaror rivojlanishi, rehabilitatsiyasi, jamiyatda moslashuvi va integratsiyasi, inklyuziv ta'limning hamma uchun ochiqligi, ta'lim tizimining o'quvchilarning rivojlanish salohiyatlari, o'ziga hos xususiyatlari hamda ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashuvi, imkoniyatlari cheklangan bolalarni umumiy ta'limga integratsiyalash maqsadida ta'lim muassasalari, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlarining faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratish va bir qancha tamoyillar asosida tashkil etish belgilab berilgan.



Inklyuziv ta'limni shakllantirish va amaliyotga jori etilishi yo'zasidan pedagogika va psixologiya sohasi olimlari XX asrning ikkinchi yarimdan ilmiy izlanishlar olib borib, XXI asrda ko'p rivojlangan davlatlar qatorida O'zbekistonda ham joriy etildi. 2003 yilda Respublikamizda "Talim hamma uchun" Milliy dasturi ishlab chiqildi. "Ta'lim hamma uchun" dasturining Milliy rejasi YUNESKOning maslahatlari va moddiy ko'magi bilan 2000 yilgi Dakar shartnomalariga mos bo'lib, siyosatchilar, ta'lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo'ljallangan bo'lib muammolarni isloh etish va istiqbollari tahlil qilindi[.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha o'quvchilarning, jumladan, jismoniy, psixologik, nutqiy, intellektual yoki ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarga ega bolalarning yagona ta'lim muhitida teng imkoniyatlar asosida o'qitilishini nazarda tutuvchi pedagogik jarayondir. Inklyuziv ta'lim ta'lim tizimining har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyati, ehtiyoji va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim xizmatlarini moslashtirishga qaratilgan shaklidir. UNESCO ta'rifiga ko'ra, inklyuziya — bu farqlarga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish va barcha o'quvchilarni o'z ichiga olgan ta'lim muhitini yaratish jarayonidir[2]

Inklyuziv yondashuvning asosiy g'oyasi o'quvchilarni ajratish yoki nogironlik belgisiga qarab maxsus muassasalarga chiqarib qo'yish emas, balki ularni ommaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilishdir. Bu yondashuv bolalarning ijtimoiylashuvi, o'z-o'zini anglash, jamiyatga moslashuvi va o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati quyidagi g'oyalarni o'z ichiga oladi:



Har bir o'quvchining ehtiyoji, imkoniyati va rivojlanish sur'ati turlicha. Inklyuziv ta'limda "o'quvchi ta'limga moslashmaydi, ta'lim o'quvchiga moslashtiriladi" degan tamoyil ustuvordir.

O'quvchilar nogironlik turi, sog'lig'i, ijtimoiy kelib chiqishi, millati yoki boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar ta'lim resurslaridan teng foydalanish imkoniga ega bo'lishlari kerak.

Inklyuziv ta'lim nafaqat o'quv dasturining, balki o'quv jarayonining, sinf muhitining, texnik vositalarning, uslublarning individual ehtiyojlarga moslashtirilishini talab qiladi.

Inklyuziv maktabda o'qigan bolalar jamiyat bilan erta muloqotga kirishadi, ular o'zaro hurmat, bag'rikenglik, hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim samaradorligi ota-ona, o'qituvchi, psixolog, defektolog, sotsial pedagog va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati bilan belgilanadi[4].

Quyidagi tamoyillar inklyuziv ta'limning asosiy pedagogik poydevorini tashkil etadi:

1. Insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyili: Har bir bola qadrli, noyob va rivojlanish huquqiga ega. O'quvchilar o'rtasidagi farqlar qadriyat sifatida qabul qilinadi.

2. Inklyuziv ta'limga individual yondashuv: O'quv dasturlari va o'quv-uslubiy jarayon o'quvchining rivojlanish darajasi, qiziqishlari va psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqiladi.

3. Moslashtirilgan ta'lim muhiti: Darsliklar, ko'rgazmali qurollar, texnologiyalar, o'quv jarayonining fizik va psixologik sharoiti o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtiriladi.

4. Ijtimoiy integratsiya: Nogironligi bo'lgan bolalar maxsus ajratilmay, umumiy sinf hayotiga to'liq qo'shiladi. Bu ularda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiradi.



5. Mutaxassislararo hamkorlik: Psixolog, logoped, defektolog, sotsial pedagog, o‘qituvchi va ota-onalar birgalikda ish olib borishi zarur. Bunday yondashuv ta’lim sifatini oshiradi[3].

Xulosa qilib shuni aytish kerakki Inklyuziv ta’lim — bu shunchaki nogironligi bo‘lgan bolalarni umumiy sinfga qo‘shish emas, balki barcha bolalarning qiziqishi va qobiliyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan kompleks pedagogik jarayondir. Uning mohiyati ta’limning tengligi, insonparvarligi va o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvda namoyon bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim tamoyillariga tayangan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni har bir o‘quvchining jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. –Toshkent.: 2008 yil.
2. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. –Paris, 2017.
3. Z.Ibodullayev.Tibbiyot psixologiyasi.O‘quv qo‘llanma. –Toshkent; «Iqtisod-moliya», 2008 yil.
- 4.Vasila Karimova.Salomatlik psixologiyasi. “O‘quv qo‘llanma”, –Toshkent., 2005 yil.
5. Solso K. Kognitivnaya psixologiya. Darslik; –M.:2002.

